



O'ZBEK SHEVALARIDAGI "IKKILAMCHI NOMINATSIYA" HODISASINING MADANIYAT VA QADRIYAT BILAN UYG'UNLIGI

Ortiqov Ramazon Raxmat o'g'li

Qarshi xalqaro universiteti

"Filologiya va tillarni o'qitish"

kafedraasi o'qituvchisi, ortiqovramazon644@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15533147>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 19th May 2025

Published: 27th May 2025

KEYWORDS

Turkologiya, ikkilamchi nominatsiya, perifraza, ijtimoiy-lisoniy shakllanish, adabiy til, diniy asos, madaniyat.

ABSTRACT

Bu maqolada o'zbek shevalaridagi ikkilamchi nominatsiya hodisasining bir til hodisasi sifatida madaniyatga va milliy an'analarga aloqadorligi haqida ilmiy fikr-mulohazalar yuritilgan.

Qadimda ham hozirgi globallashuv jarayonida ham o'zidan eng ko'p madaniyatni, an'analarni va milliy qadriyatlarni o'zida tajalli qiladigan omil bu til hisoblanadi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, tilning asosini tashkil etadigan shevani aytish mumkin. Shevada shu tildan foydalanadigan xalqning, millatning milliy qadriyatlari akslanib, bo'rtib turadi. O'zbek xalqida, asosan, saqlanib qolgan milliy an'analarni, qadriyatlar qarindoshlar o'rtasida bo'ladigan munosabatda o'zining yorqin isbotini topgan deyishimiz mumkin. Qarindoshlik aloqalarida o'zbek xalqining turli xil ko'rinishdagi o'ziga xos bo'lgan nozik bir jihatlari namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlar muhim bir lingvokulturologik ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu tufayli boshqa turkiy xalqlarda ham bu jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, X.G.Yusupov hozirgi zamon boshqird tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarining ko'rinishi, ularning dialektal xususiyatlarini ta'riflab bergan¹ va bu munosabatlar millatning milliylik uchun muhim bo'lgan xususiyatlar ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Insonlar hayotida, ijtimoiy muhitida iste'molda bo'lgan hodisa ularning tiliga ham ko'chadi, shu tufayli bu jarayonlarni lingvokulturologik, tilshunoslik va dialektologik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish muhim hisoblanadi. X.G.Yusupovning tadqiqoti ham shular jumlasidandir.

XIX asr oxirida F.Boasning antropologik tadqiqotlarini boshlashi bilan "madaniyat" atamasi turli jamiyatlarga nisbatan ham qo'llanila boshlandi. Madaniyatga nisbatan qarashlarning bunday modifikatsiyasi tilning qanday ahamiyat kasb etib borishi jihatidan juda muhim hisoblanadi. Shu vaqtdan boshlab til(sheva) va madaniyat uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi.

A.Vejbitskaya, madaniyatning Klifford Gerts taklif qilgan samarali bir ta'rifini keltiradi. Unda aytilishicha, madaniyat - bu ramzlarda mujassamlashgan mohiyatlarning tarixiy jihatdan shakllanadigan modelidir. Bu meros qoldiriladigan tasavvurlar tizimi bo'lib, ular yordamida odamlar o'zaro bir-biri bilan muloqotda bo'lishadi va ularning hayot haqidagi bilimlari hamda hayotiy qoidalari shu tasavvurlar asosida qayd qilinadi va rivoj topadi.

E.Sepir madaniyatni mazkur jamiyatning ish yuritishi va fikrlashi uchun asos bo'ladigan narsa sifatida ta'riflagan.

¹ Исмоилов И.А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. –Тошкент. 1966. –Б.9.

E.Sepirning yozishicha: “Til - madaniyatning to‘planishi va uning tarixan meros qoldirilishida katta rol o‘ynashi, shubhasiz. Bu madaniyatning eng yuksak darajalari va uning sodda shakllariga ham birdek tegishlidir. Eng sodda jamiyat madaniyat fondining katta qismi ko‘proq yoki kamroq aniqlik bilan belgilangan til shaklida saqlanib qoladi”. Bu fikrlardan biz til va madaniyatlar va shu tilning asosini tashkil qiladigan shevalarning bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligini, ular bir-birisiz mavjud emas ekanligini anglashimiz mumkin. Aslida, madaniyatlar, qadriyatlar ekstralingvistik hodisalarda, narsa buyumlarda ham mavjud bo‘ladi. Ammo ular ham til yoki sheva orqali ifodalanadi, yuzaga chiqadi. Xuddi shunday shevalarda faol iste‘molda bo‘lgan ikkilamchi nominatsiya hosilalari ham o‘zining uzoq va buyuk tarixiga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining ajralmas bir madaniy qismi sifatida yashab kelmoqda. Binobarin, perifraza(biz shevada ikkilamchi nominatsiya deb atayotgan hodisa)ning paydo bo‘lishi va rivojlanishi lisoniy va nolisoniy omillar bilan bevosita aloqadordir. Bunda, shubhasiz, ijtimoiy hayotdagi narsa-buyum va predmetlarning nomini obrazli ifodalashda, shuningdek, ma‘lum hodisalarga, narsalarga aloqadorlik kasb etishida perifrazalar hosil qilinadi. Albatta, bu holat perifrazalar shakllanishining usul va yo‘llarini belgilab olishni taqozo etadi. Ta‘kidlash joizki, perifrazaning shakllanishida motivlovchi asos uchun aynan til va nutqiy hodisa ekanligini anglatish bilan birga, tilning jamiyat hayotidagi o‘rnini belgilash uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qilishi². kuzatiladi. To‘g‘ri, ikkilamchi nominatsiya faqat borliqdagi ekstralingvistik omillarga bog‘liq emas, unda til ichki funksiyalari, qonuniyatlari va konstruksiyalariga ham asoslanadi, ulardagi o‘ziga xos qonuniyatlarga bo‘ysungan holda rivojlanadi. Bir qaraganda tilning ichki qurilishi mavjud emasdek tuyuladi, biroq unda o‘zbek tiliga xos bo‘lgan grammatik qonuniyatlar mavjud bo‘ladi. Biz ikkilamchi nominatsiyaning bu jihatlariga chuqur kirmaymiz, biz yoritmoqchi bo‘lgan jihatlar ikkilamchi nominatsiya hosilalarining milliy-madaniy xususiyatlarining o‘ziga xosligi, qonuniyatlari haqida to‘xtalishga qaror qildik.

Shevalarimizdagi ikkilamchi nomlanish xususiyati turli xil sohalarda ko‘zga tashlanadi. Bu sohalar ham o‘zbek xalqining tarixdan ajralmas bir qismi sifatida faoliyat yuritgan, shug‘ullangan sohalari deyish mumkin. Ha, aslida ham shunday bo‘lishi kerak, chunki jamiyat, xalq o‘zi yaxshi bilgan, yaxshi tushungan va muvaffaqiyat qozongan sohalaridagina ikkilamchi nomlar qo‘yishga ehtiyoj sezadi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyat va millat hayotiga qaysi soha eng chuqur darajada kirib kelgan bo‘lsa, shu yo‘nalishda ma‘lum yangiliklar qilinadi va ehtiyoj seziladi. Bizning tariximiz turkiylarga borib taqalishini, ular, asosan, ko‘chmanchi bo‘lishgan, keyinchalik esa dehqonchilik bilan shug‘ullanganligi va VII-VIII-asrlardan keyin Islom dinini qabul qilganligi nuqtayi nazaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, bizda chorvachilik, dehqonchilik juda yaxshi rivojlangan deyishimiz mumkin. Bu sohalar o‘zbek xalqining ijtimoiy hayotiga chuqur kirib kelgan. Aynan shuning uchun ham, ikkilamchi nom qo‘yish ehtiyoji shu sohalarda yorqinroq ko‘rinadi. Shu o‘rinda shuni ta‘kidlashimiz kerakki, bizning ajdodlarimiz hayotida va milliy an‘analarida oilaga bo‘lgan munosabat, ota-ona savlati va qarindosh-urug‘chilik munosabatlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Oilaning muqaddasligi, oila a‘zolarining munosabatlari ham an‘ana darajasiga ko‘tarilishi bejiz emas. Shuningdek, F. Engels o‘zining “Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi” degan asarida oila formalarining u yoki bu shaklidagi qarindoshlik terminlarining ahamiyati to‘g‘risida: “ota, o‘g‘il va qiz, aka-uka, opa-singil degan nomlar faqat faxriy, juda jiddiy, o‘zaro majburiyatlar bilan bog‘liq va bu majburiyatlarning majmuasi mazkur xalqlarning ijtimoiy tuzumining muqim qismini tashkil etadi”³, - deb yozgan edi. Bundan ko‘rinib turibdiki, oila a‘zolarining o‘rtasidagi munosabat naqadar muhim bir rishtalar bilan bog‘lanib qolmay, balki o‘ziga yarasha majburiyatlarga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Keyinchalik biz yuqorida ta‘kidlagan davrga kelib islom dinini qabul qilishimiz, bu rishtalarni yana-da

² Бондалетов В. Сотсиолная лингвистика. –М., 1987. –С.10.

³ Энгелс Ф. Оила, хусусий мулк ва давлатнинг келиб чиқисхи. Уздавнасхр. –Тошкент, 1956, –Б.30.

mustahkamlashga xizmat qildi. Aynan shu kabi omillar ham qarindosh-urug'chilik munosabatlarida ham ikkilamchi nomlash jarayonidan foydalanishga turtki bo'lgan. Shuning uchun ham ikkilamchi nomlash o'zbek xalqining turli xil sohalarida paydo bo'lganligini ta'kidlashimizga asos bo'ldi.

Jamiki jamiyatdagi madaniy va an'anaviy qarashlar asosini din tashkil qiladi. Bugungi kunda qaysi elat yoki millatning milliy an'analari va qadriyatlari o'ziga xos ekan, uning dini bunga tamaltosh vazifasini bajargan. Dindagi cheklovlar va rag'batlar undagi qadriyatlarning u yoki bu ko'rinishda shakllanishiga sababchi bo'ladi. Bu qoidalarga, me'zonlarga inonib yashagan millat esa, o'sha muhit taqazo qiladigan so'zlardan, gaplardan va nutq uslubidan foydalanadi. Qarabsizki, madaniyat va til o'rtasida ajratib bo'lmaydigan o'zigaxosliklar paydo bo'ladi. Shu kabi lisoniy hodisalardan biri "ikkilamchi nominatsiya" hodisasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samixon Ashirboyev "O'zbek dialektalogiyasi" Toshkent-2021.
2. Ro'ziqul Normurodov "O'zbek tilida ikkilamchi nominatsiya" Toshkent-2010.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent-1980.
4. Исмоилов И.А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. -Тошкент. 1966.
5. Бондалетов В. Сотсиолная лингвистика. -М., 1987. -С.10.
6. Енгелс Ф. Оила, хусусий мулк ва давлатнинг келиб чиқисҳи. Уздавнасҳр. -Тошкент, 1956.

Internet saytlari:

1. www.literature.uz
2. www.library.ziyonet.uz

INNOVATIVE
ACADEMY